



YURAK ISHEMIK KASALLIKLARI VA COVID-19 BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA KASALLIKNING KLINIK KECHISHI

Tog'aydullayeva Dildora Dilmurodovna

Klinik fanlar kafedrası assistenti

Osiyo Xalqaro Universiteti, Bukhoro, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada koronavirusning (COVID-19) yurak qon tomir kasalliklariga ko'rsatadigan ta'sirining ko'rinishlari, statistik holatlar muhokama etiladi. Shu bilan birga, ko'p jihatdan infeksiyaning tarqalish xususiyatlarini o'rganish, bemorning yoshiga, jinsiga, zararli odatlariga, yondosh kasalliklari kabi bir qancha omillarga bog'liqligi takidlangan.

Kalit so'zlar: COVID-19, yurak ishemik kasalliklari(YuIK), xavf omillari, asoratlar

KIRISH

Dunyoning barcha mamlakatlarida COVID-19 pandemiya ko'rinishida katta tezlikda tarqalib jahonda millionlab aholi u bilan kasallanmoqda. Tabiiyki bu hol barcha tadqiqotchilar oldida ushbu kasallikni har tomonlama va atroflicha chuqur o'rganishni kun tarkibida asosiy vazifa qilib qo'ymoqda. Dunyo olimlarining hozirgi kuzatuvlariga ko'ra jarayon ayrim hollarda belgilersiz kechsa, ko'p hollarda yuqori nafas yo'llarining o'tkir respirator infeksiyasi belgilari bilan namoyon bo'ladi. Undan so'ng bemorlarning bir qismida zotiljam, o'tkir respirator distress sindromi, sepsis rivojlanib pirovard oqibatda barcha a'zolarining (poliorgan) yetishmovchiligi yuzagakeladi. Bugungi kunda barcha tadqiqotchilar tomonidan COVID-19 kasalligi yoshiulug' kishilar va turli yondosh kasalliklar mavjud bo'lgan bemorlarda og'ir kechib ko'proq o'limga sabab bo'lishi e'tirof etilgan. Ular orasida uning yurak qon-tomir kasalliklari negizida komorbid rivojlanishiga alohida e'tibor berilgan bo'lsa ham ammo hozirga qadar COVID-19 miokardning turli kasalliklari to'g'risida yakuniy xulosaga kelinmagan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, kasalxonaga yotqizilgan bemorlarda yurak-qon tomir kasalliklari(YQTK) bilan kasallanish darajasi COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda ancha yuqori va tez-tez uchraydi. COVID-19 kasalligi bilan birgalikda yurak ishemik kasalligi(YuIK), arterial gipertenziya(AG), miokardit, aritmiyalar, kardiomiopatiyalar va hattoki miokard infarkti tez-tez uchrab turadi. Shu bilan birga,



baholash natijasi ko'p jihatdan infektsiyaning tarqalish xususiyatlarini o'rganish o'tkazilgan hududga, bemorning yoshiga, jinsiga, zararli odatlariga, yondosh kasalliklari kabi bir qancha omillarga bog'liq. Shunga ko'ra, ma'lumotlarni to'plash va ularni tizimlashtirish bilan turli xil yurak-qon tomir xavf omillari va yurak-qon tomir kasalliklarining paydo bo'lish chastotasi haqidagi dolzarb muammolar COVID19 bilan kasallangan bemorlarning kontingentlari aniqlanadi va bunga qarshi chora tadbirlar amalga oshiriladi. COVID-19 kasalligi hali to'liq o'rganilgani yo'q, YQTK bilan og'rikan bemorlarda COVID-19 yanada og'irroq kechishi kuzatilmoqda. Shunday qilib, 99 ta ketma-ket ma'lumotlarni retrospektiv tahlil qilishda COVID-19 bilan kasallangan bemorlar va natijalari ma'lum bo'lgan pnevmoniya bilan kasalxonaga yotqizilganidan keyin birinchi 14 kun ichida, Breshiyadagi(Shimoliy Italiya) kasalxonalardan birida yurak ishemik kasalligi(YuIK), Bo'lmachalar fibrilliyatsiyasi(BF), Surunkali yurak yetishmovchiligi(SYuY) bo'lgan 53 ta bemordan olingan analiz natijalarida qonda kreatinin, troponin C, NT- proBNP, shuningdek prokalsitonin miqdori yuqori ekanligi aniqlandi.

Shu bilan birga, ular dastlab renin-angiotensin-aldosteron tizimining(RAAT) blokatorlarini, antikoagulyantlar va statinlarni ko'proq qabul qilishgan. Natijada, yurak kasalliklari bilan birga o'lim va septik shok bilan kasallanish sezilarli darajada yuqori bo'ldi(15% o'rniga 36% $p = 0,02$) va 0 ga nisbatan 11%, mos ravishda $p=0,02$ va shuningdek, respirator distress sindromi(RDS), venoz va arterial trombozning tez-tez paydo bo'lish tendentsiyasi yuzaga keldi. Yuqoridagi ko'rsatkichlar o'sishiga, asosiy omil yoshi bilan bir qatorda, YuIK, SYuY, Qandli diabet(QD) 2 tip, Surunkali buyrak kasalligi(SBK) va NTproBNPning yuqori darajasida o'lim sezilarli darajada yuqori edi, ammo bu tendensiyaning kelib chiqishi RAAT blokatorlari va antikoagulyantlarni oldindan qo'llash bilan bog'liq emas degan xulosa mavjud.

Vuxan (Xitoy) Universiteti kasalxonasida 187 bemorning ma'lumotlarini retrospektiv tahlil qilishda, yurak-qon tomir kasalliklari bo'lmagan va yurak troponin darajasi normal bo'lgan bemorlarda 13,3%, yurak-qon tomir kasalliklari bo'lgan bemorlarda yurak troponin darajasi normal bo'lganda - 37,5% va yurak troponin darajasi yuqori bo'lganda - 69,4% o'lim ko'rsatkichi yuzaga kelgan [3]. Shu bilan birga, yurak troponin darajasi keksalarda va yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'rikan bemorlarda (13,2% ga nisbatan 54,5%) tez-tez o'sdi va qondagi C-reaktiv oqsil (CRO) va NT-proBNP konsentratsiyasi bilan o'zaro bog'liq bo'ldi. Kasalxonada o'lim darajasi yuqori bo'lganidan tashqari, qonda yurak troponin darajasi yuqori bo'lgan bemorlarda yurak aritmiyalari va Suniy nafas olish(SNO)



uskunasiga bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan. Vuxan (Xitoy) universiteti kasalxonasida og'ir COVID-19 bilan kasalxonaga yotqizilgan 671 bemorning kasallik tarixini retrospektiv tahlil qilish natijalariga ko'ra, kardioprotein I darajasining ko'tarilishi mustaqil ravishda quyidagilar (keksa yosh, gipertenziya, YuIK, SYuY va yuqori daraja CRO) bilan bog'liq edi [6]. Shu bilan birga, qonda kardioprotein I konsentratsiyasining oshishi, kreatin fosfokinaza va NTproBNPning MB fraksiyasi darajasining oshishi bilan birga, kasalxonada o'limning mustaqil prognozchisi edi.

Nyu-York shahridagi o'tkir respirator yetishmovchiligi bo'lgan 5257 bemorda keksa yosh, YuIK, SYuY mavjudligi kasalxonada o'limga sabab bo'luvchi mustaqil omil deb baholangan [2]. Yurak qon – tomir tizimini ob'ektiv tekshirish. Xurujlar oralig'idagi davrda yurak soxasi ko'rigi, paypaslash va perkussiyada aksariyat YuIK va ateroskleroz bilan og'riq bemorlarda, ayniqsa AG mavjud bo'lganda cho'qqi turtkisi va yurak chap chegarasi (chap qorincha bo'shlig'i kengayishi hisobiga) chapga siljiganligi kuzatiladi. Qon bosimi me'yorida bo'lgan bemorlarda odatda chegara o'zgaraydi. Auskultatsiyada chap qorinchani qisqaruvchanlik xususiyati pasayishi hisobiga xurujlar oralig'ida I ton sustlashadi. U nafaqat chap qorinchani sistolik disfunktsiyasi balki kompensator gipertrofiyasi, qorincha devoridagi fibroz o'zgarishlar va ayrim holatlarda gibernirovchi yoki “kar” miokard mavjudligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Aortani ko'krak qismi aterosklerozi mavjud bo'lganda, QB me'yorda bo'lsa ham, to'sh suyagining o'ng qirrasini, II qovurg'a oralig'ida II ton aktsenti eshitiladi. Periferik qon tomirlar tekshirilganda ularni qattiqlashganligi va egri – bugri bo'lib qolganligi aniqlanadi. QB bir oz ko'tarilgan yoki me'yorida bo'lishi mumkin. Stenokardiya huruji vaqtida bemorlar harakatsiz, agar yurib ketayotgand vaqtda kuzatilsa bir necha daqiqaga to'xtaydilar. Og'riq tunda yoki bemor yotgan vaqtda kuzatilsa odatda, u to'shakda o'tirib oladi. Bu holat yurakka kelayotgan venoz oqimni uni kislorodga bo'lgan talabini sekinlatib, ko'p hollarda og'riq hurujlari vaqtida bemorda o'limdan qo'rqish hissi yuzaga keladi, teri qoplamlari oqarib, yuzi azoblanuvchi tus oladi. Og'ir holatlarda taxikardiya yoki pul'sni sekinlashishi kuzatiladi. Auskultatsiyada yurak mushaklarida ishemiya o'chog'i yuzaga kelganligi sababli qisqa muddatga miokard qisqaruvchanligi pasayishi hisobiga yurak tonlari bo'g'iqlashganligi aniqlanadi. Huruj bartaraf etilgach tonlar, jumladan I ton balandligi avvalgi holatiga qaytadi.

Og'ir hurujlar vaqtida ishemiyaga uchragan chap qorinchani miokardi regidligi oshishi hisobiga patologik IV ton (presistolik ot dupri) eshitilishi mumkin. Agar huruj vaqtida chap qorinchani sistolik disfunktsiyasi kuchaysa, yurakni III toni (protodiastolik ot dupri) aniqlanadi. Laborator – asbobiy tekshirishlar. Aksariyat



hollarda YuIK va turg'un zo'riqish stenokardiyasi tashhisi bemorni so'rab – surishtirish vaqtida aniqlanadi. Lekin stenokardiyaga xos bo'lgan og'riq sindromini bo'lmasligi YuIK tashhisini inkor etish uchun yetarlicha asos bo'la olmaydi. Shu sababli vaqti – vaqti bilan ko'krak qafasi va yurak sohasida og'riq hurujlari bezovta qilib turgan har qanday bemorda (ayniqsa, yoshi katta shaxslarda) YuIK bor yoki yo'qligini tasdiqlash uchun qator laborator – asbobiy tekshirish usullarini o'tkazish lozim. Quyida ularning asosiylariga to'xtalib o'tamiz. Elektrokardiografiya. Ko'krak qafasidagi og'riqni qiyosiy tashhishlashda EKG muhim ahamiyatga ega bo'lgan tekshirish usuli hisoblanadi. Ayrim hollarda tinch holatda olingan EKG da hatto yaqqol namoyon bo'lgan stenokardiya xurujlari vaqtida ham YuIK ga xos o'zgarishlar bo'lmasligi mumkin. Ayniqsa yosh bemorlarning 1/3 qismida hurujlar oralig'ida olingan EKG da patologik o'zgarishlar kuzatilmaydi. Qolgan bemorlarda YuIK ga xos bo'lmagan quyidagi o'zgarishlar aniqlanishi mumkin: • Chap qorincha gipertrofiyasi belgilari (hatto AG bilan og'rimagan bemorlarda ham); • Avval o'tqazgan MI ga xos bo'lgan chandiqli o'zgarishlar belgisi; • Turli xil ritm va o'tkazuvchanlikni buzilishlari; • QRS kompleksi va Q – T oralig'i davomiyligini bir oz uzayishi. T tishchasini (silliqlashishi, ikki qutbli bo'lishi, inversiyasi yoki aksincha baland T tishchasi) va RS-T oralig'ini o'zgarishi (ko'pincha RS-T oraliqni o'rta chiziqdan bir oz pastga siljishi). Sanab o'tilgan tinch holatda olingan EKG da T tishcha va RS-T oraliqni o'zgarishi YuIK dan tashqari chap qorincha gipertrofiyasi bilan kechadigan (AG, GKMP, tug'ma hamda orttirilgan yurak nuqsonlari va boshqalar) yurak qon – tomir tizimining boshqa qator kasalliklarida ham kuzatiladi. Shuningdek, bu o'zgarishlar ayrim dori vositalarini (yurak glikozidlari) qabul qilganda va elektrolitlar almashinuvini buzilishida ham yuzaga keladi. EKG da faqat IM o'tkazganlikni tasdiqlovchi patologik Q tishcha aniqlanishi bemorda YuIK mavjudligini tasdiqlovchi belgi hisoblansa ham ammo, bu o'zgarish DKMP, tugunchali periarteriit kabi kasalliklarda ham kuzatilishi mumkin.

Stenokardiya huruji vaqtida olingan EKG da RS-T oraliqni o'rta chiziqdan pastga siljishi yurak mushagining subendokardial sohasida ishemiya yuzaga kelganligidan dalolat beradi. Bir vaqtning o'zida T tishchasini silliqdashishi, ikki qutbli bo'lib qolishi yoki inversiyasi kuzatiladi. Bu o'zgarishlar ko'krak tarmoqlarida aniqlansa, chap qorinchani oldingi devorida, II, III, aVF tarmoqlarda bo'lsa orqa diafragmal sohada ishemiya yuzaga kelganligini bildiradi. Ko'krak tarmoqlarida baland, o'tkir uchli va teng yelkali T tishcha paydo bo'lishi chap qorinchani orqa devori ishemiyasidan dalolat beradi. EKGdagi bu o'zgarishlar stenokardiya hurujlari kabi qisqa muddatli bo'lib, og'riq bartaraf etilgandan keyin 4-



10 daqiqa ichida to'liq orqaga qaytadi. Yuqorida sanab o'tilgan EKG o'zgarishlar bilan kechgan stenokardiyaga xos bo'lgan og'riq huruji YuIK tashxisini tasdiqlovchi ishonchli me'zon bo'lsa ham amaliyotda kamdan – kam hollarda qayd etiladi. Faqat Xolter bo'yicha olingan EKG bundan istisno hisoblanadi.

Shunday qilib, COVID-19 va YQTK va yurak qon tomir kasalliklari havf omillari qo'shilib kelgan bemorlarda ularning o'zaro ta'siri kasallikning kechishi va prognoziga salbiy ta'sir qiladi. Bunday vaziyatda, bir tomondan, yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolashda samarali yondashuvlarni saqlab qolish, ikkinchi tomondan, COVID-19ning yanada og'ir kechishiga tayyor bo'lish juda muhimdir. Shubhasiz, bunday bemorlarni infeksiya va uning asoratlarinigina emas, balki yurak-qon tomir patologiyasini ham oldini olish, aniqlash va davolash muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Боярская, Л. А., Прокопьев, Н. Я., Ананьев, В. Н., ВОЛКОВА, С., & АНАНЬЕВА, О. (2022). Устойчивость к гипоксемии женщин второго зрелого возраста в период пандемии COVID-19 с ишемической болезнью сердца. *Естественные и технические науки*, (5 (168)), 103.
2. Dilmurodovna, T. D. (2023). MORPHOLOGICAL ASPECTS OF THE THYROID GLAND IN VARIOUS FORMS OF ITS PATHOLOGY. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences* (2993-2149), 1(8), 428-431.
3. Dilmurodovna, T. D. (2023). КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЕ ВОСПАЛИТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В ПОДЖЕЛУДОЧНОЙ ЖЕЛЕЗЕ ПРИ САХАРНОМ ДИАБЕТЕ I И II ТИПА. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(1), 173-177.
4. Togaydullaeva, D. D. (2022). Erkaklarda yurak ishemik kasalligining kechishida metabolik sindrom komponentlarining ta'siri. *Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya*, 1(4), 29-34.
5. Togaydullaeva, D. D. (2022). ARTERIAL GIPERTONIYA BOR BEMORLARDA KOMORBIDLIK UCHRASHI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 32-35.
6. Dilmurodovna, T. D. (2023). Morphological Signs of the Inflammatory Process in the Pancreas in Type I and Ii Diabetes Mellitus. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(11), 24-27.
7. Khafiza, J., & Dildora, T. (2023). Frequency of Comorbid Pathology among Non-Organized Population. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(4), 260-266.



8. Dilmurodovna, T. D. (2023). Clinical and Diagnostic Features of the Formation of Arterial Hypertension in Young People. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(12), 41-46.
9. Dilmurodovna, T. D. (2024). DIABETES MELLITUS IN CENTRAL ASIA: PROBLEMS AND SOLUTIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 204-213.
10. Тогайдуллаева, Д. Д. (2024). ОБЩИЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕЧЕНИЕ САХАРНОГО ДИАБЕТА В СРЕДНЕЙ АЗИИ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 193-204.
11. Нарзулаева, У., Самиева, Г., Лапасова, З., & Таирова, С. (2021). Значение диеты в лечении артериальной гипертензии. *Журнал биомедицины и практики*, 1(3/2), 111-116.
12. Obidovna, D. Z., & Sulaymonovich, D. S. (2022). Physical activity and its impact on human health and longevity. *Достижения науки и образования*, (2 (82)), 120-126
13. Ataullayeva, M. (2023). COMMUNICATIVE COMPETENCE AS A FACTOR OF PERSONAL AND PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF A FUTURE SPECIALIST. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(10), 109-114
14. Тоҳировна, Е. Г. (2024). QANDLI DIABET 2 TUR VA YURAK QON TOMIR KASALLIKLARINING BEMOLARDA BIRGALIKDA KECISHI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 202-209.
15. Эргашева, Г. Т. (2024). СНИЖЕНИЕ РИСКА ОСЛОЖНЕНИЙ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2 ТИПА И СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 210-218.
16. Эргашева, Г. Т. (2024). СОСУЩЕСТВОВАНИЕ ДИАБЕТА 2 ТИПА И СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У ПАЦИЕНТОВ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 38(7), 219-226.
17. Narzullaeva, U. R., Samieva, G. U., & Samiev, U. B. (2020). The importance of a healthy lifestyle in eliminating risk factors in the early stages of hypertension. *Journal Of Biomedicine And Practice*, 729-733.
18. Ахмедова, М. (2020). НАРУШЕНИЯ ЭНДОТЕЛИАЛЬНОЙ ФУНКЦИИ ПРИ РАЗВИТИИ АФТОЗНОГО СТОМАТИТА. *Достижения науки и образования*, (18 (72)), 65-69
19. Narzulaeva, U. R. (2023). Important Aspects of Etiology And Pathogenesis of Hemolytic Anemias. *American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences* (2993-2149), 1(7), 179-182.



20. Axmedova Malika Qilichovna. (2023). THE IMPACT OF SOCIOCULTURAL FACTORS ON THE PERVASIVENESS OF DENTAL CARIES AS A COMPLEX HEALTH CONDITION IN CONTEMPORARY SOCIETY. *INTERNATIONAL BULLETIN OF MEDICAL SCIENCES AND CLINICAL RESEARCH*, 3(9), 24–28.
21. Ergasheva Gulshan Toxirovna. (2024). ARTERIAL GIPERTENZIYA KURSINING KLINIK VA MORFOLOGIK JIHATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 244–253.
22. Эргашева Гулшан Тохировна. (2024). НОВЫЕ АСПЕКТЫ ТЕЧЕНИЕ АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТОНИИ У ВЗРОСЛОГО НАСЕЛЕНИЕ. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 224–233.
23. Ergasheva Gulshan Tokhirovna. (2024). CLINICAL AND MORPHOLOGICAL ASPECTS OF THE COURSE OF ARTERIAL HYPERTENSION. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 12(4), 234–243.
24. Эргашева, Г. Т. (2024). ОСЛОЖНЕНИЯ САХАРНОГО ДИАБЕТА 2 ТИПА ХАРАКТЕРНЫ ДЛЯ КОГНИТИВНЫХ НАРУШЕНИЙ. *TADQIQOTLAR*, 30(3), 112-119.
25. Abdurashitovich, Z. F. (2024). MORPHO-FUNCTIONAL ASPECTS OF THE DEEP VEINS OF THE HUMAN BRAIN. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(6), 203-206.
26. Abdurashitovich, Z. F. (2024). THE RELATIONSHIP OF STRESS FACTORS AND THYMUS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(6), 188-196.
27. Abdurashitovich, Z. F. (2024). MIOKARD INFARKTI UCHUN XAVF OMILLARINING ANAMIYATINI ANIQLASH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(5), 83-89.
28. Rakhmatova, D. B., & Zikrillaev, F. A. (2022). DETERMINE THE VALUE OF RISK FACTORS FOR MYOCARDIAL INFARCTION. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA*, 1(4), 23-28.
29. Tokhirovna, E. G. Studying the Causes of the Relationship between Type 2 Diabetes and Obesity. *Published in International Journal of Trend in Scientific Research and Development (ijtsrd)*, ISSN, 2456-6470.
30. Эргашева, Г. Т. (2024). ФАКТОРЫ РИСКА РАЗВИТИЯ САХАРНОГО ДИАБЕТА 2 ТИПА. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(5), 70-74.
31. Tokhirovna, E. G. (2024). RISK FACTORS FOR DEVELOPING TYPE 2 DIABETES MELLITUS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(5), 64-69.
32. Эргашева, Г. Т. (2023). Исследование Причин Связи Диабета 2 Типа И Ожирения. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(12), 305-311.



33. Ergasheva Gulshan Toxirovna. (2023). QANDLI DIABET 2-TUR VA SEMIZLIKNING O'ZARO BOG'LIQLIK SABABLARINI O'RGANISH . Ta'lim Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 10(3), 168–173.
34. Ergasheva Gulshan Tokhirova. (2023). Study of clinical characteristics of patients with type 2 diabetes mellitus in middle and old age. *Journal of Science in Medicine and Life*, 1(4), 16–19.
35. Saidova, L. B., & Ergashev, G. T. (2022). Improvement of rehabilitation and rehabilitation criteria for patients with type 2 diabetes.
36. Ergasheva, G. (2023). METHODS TO PREVENT SIDE EFFECTS OF DIABETES MELLITUS IN SICK PATIENTS WITH TYPE 2 DIABETES. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(10), 104-108.
37. Ergasheva, G. T. (2022). QANDLI DIABET BILAN KASALLANGANLARDA REABILITATSIYA MEZONLARINI TAKOMILASHTIRISH. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 335-337.
38. ГТ, Э., & Саидова, Л. Б. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РЕАБИЛИТАЦИОННО-ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ КРИТЕРИЕВ БОЛЬНЫХ С СД-2 ТИПА. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(12), 206-209.
39. Toxirovna, E. G. (2023). O'RTA VA KEKSA YOSHLI BEMORLARDA 2-TUR QANDLI DIABET KECCHISHINING KLINIKO-MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(1), 164-166.
40. Эргашева, Г. Т. (2023). Изучение Клинических Особенности Больных Сахарным Диабетом 2 Типа Среднего И Пожилого Возраста. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(6), 274-276.
41. Ахмедова, М. (2020). НАРУШЕНИЯ ЭНДОТЕЛИАЛЬНОЙ ФУНКЦИИ ПРИ РАЗВИТИИ АФТОЗНОГО СТОМАТИТА. *Достижения науки и образования*, (18 (72)), 65-69
42. Axmedova Malika Qilichovna. (2023). THE IMPACT OF SOCIOCULTURAL FACTORS ON THE PERVASIVENESS OF DENTAL CARIES AS A COMPLEX HEALTH CONDITION IN CONTEMPORARY SOCIETY. *INTERNATIONAL BULLETIN OF MEDICAL SCIENCES AND CLINICAL RESEARCH*, 3(9), 24–28.
43. Axmedova, M. (2023). USE OF COMPUTER TECHNOLOGY AT THE STAGES OF DIAGNOSIS AND PLANNING ORTHOPEDIC TREATMENT BASED ON ENDOSSEAL IMPLANTS. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(11), 54-58.



44. Axmedova, M. (2023). TISH KARIESINING KENG TARQALISHIGA SABAB BO'LUVCHI OMILLAR. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(12), 200-205.
45. Saidova, L. B., & Nazarova, A. B. (2022). Prevention of infertility in women of reproductive age with obesity and vitamin D deficiency.
46. Саидова, Л. Б. (2020). Повышение качества жизни больных с хроническим гломерулонефритом на примере статинов. *Биология и интегративная медицина*, (2 (42)), 14-23.
47. Komiljonova, O. (2024). THE USE OF GINGER FOR MEDICINAL DISEASES BASED ON TRADITIONAL MEDICINE. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 3(1), 203-211.
48. Саидова, Л. Б., & Комилжонова, О. О. Патологическое течение гипотиреоза в климактерическом период в йододефицитной зоне Узбекистана. In *International Conference Science and Education/Uluslararası konferans bilim ve eg'itim//2021-15may-49b*.
49. Salokhiddinova, X. Y. (2023). MORPHOLOGICAL CHANGES IN PATHOLOGICAL FORMS OF ERYTHROCYTES. *EUROPEAN JOURNAL OF MODERN MEDICINE AND PRACTICE*, 3(11), 20-24.
50. Saloxiddinova, X. Y. (2023). ERITROTSITLAR PATOLOGIK SHAKLLARINING MORFOLOGIK O'ZGARISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 33(1), 167-172.
51. Шокиров, Б., & Халимова, Ю. (2021). Antibiotic-induced rat gut microbiota dysbiosis and salmonella resistance. *Общество и инновации*, 2(4/S), 93-100.
52. Шокиров, Б. С., & Халимова, Ю. С. (2021). Пищеварительная функция кишечника после коррекции экспериментального дисбактериоза у крыс бифидобактериями. In *Актуальные вопросы современной медицинской науки и здравоохранения: Материалы VI Международной научно-практической конференции молодых учёных и студентов, посвященной году науки и технологий, (Екатеринбург, 8-9 апреля 2021): в 3-х т.. Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования «Уральский государственный медицинский университет» Министерства здравоохранения Российской Федерации*.
53. Salokhiddinova, X. Y. (2023). Anemia of Chronic Diseases. *Research Journal of Trauma and Disability Studies*, 2(12), 364-372.
54. Salokhiddinova, X. Y. (2023). MALLORY WEISS SYNDROME IN DIFFUSE LIVER LESIONS. *Journal of Science in Medicine and Life*, 1(4), 11-15.
55. Salohiddinova, X. Y. (2023). SURUNKALI KASALLIKLARDA UCHRAYDIGAN ANEMIYALAR MORFO-FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 10(3), 180-188.



56. Халимова, Ю. С. (2024). КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ВИТАМИНА D В ФОРМИРОВАНИЕ ПРОТИВОИНФЕКЦИОННОГО ИММУНИТА. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(3), 86-94.
57. Saloxiddinovna, X. Y. (2024). CLINICAL FEATURES OF VITAMIN D EFFECTS ON BONE METABOLISM. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(5), 90-99.
58. Saloxiddinovna, X. Y. (2024). CLINICAL AND MORPHOLOGICAL ASPECTS OF AUTOIMMUNE THYROIDITIS. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 36(5), 100-108.
59. Salokhiddinovna, X. Y. (2023). Clinical Features of the Course of Vitamin D Deficiency in Women of Reproductive Age. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 3(11), 28-31.
60. Шокиров, Б., & Халимова, Ю. (2021). Антибиотик-индуцированный дисбиоз микробиоты кишечника крыс и резистентность к сальмонеллам. *Общество и инновации*, 2(4/S), 93-100.